O‘ZBEKISTON, FINLYANDIYA VA ROSSIYA MAKTABGACHA TA’LIM DASTURLARINING QIYOSIY TAHLILI

Kosimova Bibizoda Oybek qizi
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston, Finlyandiya va Rossiya davlatlarining maktabgacha ta’lim tizimlari, ularning maqsad va tamoyillari, ta’lim mazmuni hamda tashkil etish shakllari qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir davlatdagi maktabgacha ta’limning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish uchun xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, dastur, rivojlanish, tarbiya, qiyosiy tahlil, pedagogik yondashuv, xorij tajribasi, mamlakatlar, maslahatlashuv.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОГРАММ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА, ФИНЛЯНДИИ И РОССИИ

Косимова Бибизода Ойбек кызы
Студент Кокандского университета

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ систем дошкольного образования Узбекистана, Финляндии и России, их целей и*

принципов, содержания образования и форм организации. Проанализированы особенности, преимущества и недостатки дошкольного образования в каждой стране. В результате исследования выявлены возможности использования зарубежного опыта для совершенствования системы образования Узбекистана.

Ключевые слова: *дошкольное образование, программа, развитие, воспитание, сравнительный анализ, педагогический подход, зарубежный опыт, страны, консультации.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF PRESCHOOL EDUCATION PROGRAMS OF UZBEKISTAN, FINLAND AND RUSSIA

Kosimova Bibizoda Oybek qizi
Student of Kokand University

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the preschool education systems of Uzbekistan, Finland and Russia, their goals and principles, educational content and forms of organization. The specific aspects, advantages and disadvantages of preschool education in each country are analyzed. As a result of the study, the possibilities of using foreign experience to improve the education system of Uzbekistan were identified.*

Keywords: *preschool education, program, development, upbringing, comparative analysis, pedagogical approach, foreign experience, countries, consultation.*

Kirish. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan Qarorda "...nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1412 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar imzolanganligi"[2] maktabgacha ta'lim tizimiga keng e'tibor berilayotganini namoyon etadi. Shuningdek, o'tgan besh yil mobaynida maktabgacha ta'lim bilan 1,5 mln. nafar bolalarni qamrab olingan bo'lsa, bu 2017-yildagi ko'rsatkichdan ikki barobar ko'proqdir. Joriy yilning oxiriga qadar qamrovni 65,5% ga yetkazish rejalashtirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) soni ham tobora ortib bormoqda. Agar 2017-yilda MTTlarning umumiy soni 5 mingta bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib ularning soni 17 mingtadan ortganligi maktabgacha ta'lim xizmatlariga alohida e'tibor berilyotganligi va ko'rsatiladigan xizmatlar qamrovi hamda sifatini yuksaltirish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim xizmatlarini isloh qilish islohotlarni amalga oshirish bo'yicha, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "inson kapitali" tushunchasi bilan bog'laydi. Ya'ni "...rivojlangan mamlaktlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" [3] deb ta'kidlab o'tganlari bejiz emas. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tamonidan "...maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” [4] kerak deb ta’kidlaganliklari maktabgacha ta’lim tizimiga bolalarni qamrab olish darajasini yanada oshirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, bir yoshdan olti yoshli bolalar ta’lim-tarbiyasiga alohida etibor qaratishni, maktabgacha ta’lim xizmatlarini raqamlashtirish, maktabgacha ta’lim sohasi faoliyatini xususiylashtirish va davlat xususiy sherikchilik dasturlari doirasida faoliyatini amaliyotga joriy etish hamda davlatimiz rivoji uchun munosib hissa qo‘shadigan “Vatanparvar” insonlarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimiga xorijiy tajribalarni keng jalb etish, xorijiy tajribalarni o’rganish asosida avfzallik jihatlarni aniqlash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini tadbiq etish bo‘yicha V.Stiven Barnettning “Kompensatsion erta bolalik ta’limining afzalliklari” nomli ilmiy maqolasida klassik eksperiment va foyda-xarajat tahlilini o‘z ichiga olgan uzoq muddatli ta’sirlar haqidagi tadqiqotlar olib borilgan. Kompensatsion erta bolalik ta’limi aql (IQ) testlari bilan yetarli darajada o‘lchanmaydigan kognitiv qobiliyatlarga hissa qo‘shish orqali uzoq muddatli akademik muvaffaqiyatni ta’minlashi asoslab berilgan. Shuningdek, ta’limdagi ijtimoiyiqtisodiy natijalar, jumladan, bandlik, o‘smirlik homiladorligi va ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ta’sir etish jarayonlari o‘rganilgan [5].

Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayev, O.M.Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo‘yicha rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo‘llari qarab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari, faoliyat

mazmuni va ularni tashkil etish yo‘llari tahlil etilgan [6]. N.R.Sharopova “Maktabgacha ta’lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini takomillashtirish” nomli avtoreferatida maktabgacha ta’lim xizmatlari bozorini hozirgi holati va sohani rivojlantirish hamda unda zamonaviy marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim xizmatlari marketing tajribalaridan samarali foydalanish orqali mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [7].

M.X.Qilichova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari” nomli ilmiy maqolasida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Asosan rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari shakllari va sharoitlari haqida ma’lumotlar keltirilgan hamda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va uning natijaviyligiga doir fikrlar yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim va tarbiyaga oid xorijiy tajribalarni o‘rganish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilgan [9].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi O‘zbekiston, Finlyandiya va Rossiya davlatlarining maktabgacha ta’lim tizimlarini o‘rganish, ularning dasturlarini qiyosiy tahlil qilish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar va metodlardan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil metodi — uch davlatning maktabgacha ta’lim dasturlarini mazmun, maqsad va uslub jihatdan solishtirishda qo‘llanildi.

Tahlil va sintez metodi — ta’lim mazmunidagi umumiy va farqli jihatlarni ajratib olish va ularni umumlashtirishda foydalanildi.

Normativ-huquqiy tahlil metodi — har bir mamlakatda qabul qilingan ta’lim standartlari, davlat dasturlari va normativ hujjatlarni o‘rganishda qo‘llanildi.

Empirik metodlar — mavjud tajribalarni o‘rganish, statistik ma’lumotlar va xalqaro reytinglar asosida tahlil qilishda ishlatildi.

Keltirilgan mazkur metodlar tadqiq etilayotgan muammoni nazariy jihatdan batafsilroq hamda tushunarliroq bayon etishga yordam beradi.

Natija. Maktabgacha ta’lim – insonning har tomonlama shakllanishi uchun eng muhim bosqichlardan biridir. Shu bois dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilib, xalqaro tajribalarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston, Finlyandiya va Rossiya maktabgacha ta’lim dasturlari tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib beriladi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi “Maktabgacha va maktab ta’limi to‘g‘risida”gi Qonun, hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida faoliyat yuritadi. Dasturda bolalarning 6-7 yoshgacha bo‘lgan davrida jismoniy, intellektual, axloqiy va estetik rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim jarayoni o‘yin faoliyati orqali tashkil etilib, milliy qadriyatlarga tayangan holda bolalarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, jumladan, STEAM elementlaridan foydalanmoqda. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida 10000 tadan ziyod maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud. Ularda 3-6

yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab olish darajasi 61 foizini tashkil etganligi fikrimiz tasdig‘idir. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standartlariga ko‘ra maktabgacha ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy hislatlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi [8]. Demak, yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda, tarbiyalanuvchilarning shaxs sifatida shakllanishidagi jarayonda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyani ijtimoiy xizmat turi sifatida qarashimiz mumkin. Agar ta’lim xizmatlari sifatli va samarali tashkil etilsa tarbiyalanuvchilarning komil inson sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois ham mamlakatimizda amlaga oshiriladigan islohotlarning bir qismi kelajak avlodni tarbiyalash, ta’lim berish, davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan kadrlarni yetkizib berishdan iboratdir.

Shu maqsadda o‘tgan qisqa davr ichida ko‘plar loyihalar amaliyotga tadbiq etildi. Fikrimiz tasdig‘i sifatida 2018-yil davlat budjetidan 427 bog‘chada qurilish-ta’mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so‘m mablag‘ ajratildi, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasi kapital ta’mirlandi, davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) asosida yangi turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi, 2018-yil 1-yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog‘chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr-energiyasi uchun sarflanadigan mablag‘ning yarmi davlat budjeti hisobidan qoplanib berildi, bog‘chalarda bolalarni sog‘lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta’minlash maqsadida 2018-yildan boshlab har bir maktabgacha ta’lim

tashkilotsiga 10-15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun biriktirildi va bolalar bog‘chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, “Keytering” xizmatini yo‘lga qo‘yish mexanizmi ishlab chiqildi, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyati takomillashtirildi, maktabgacha ta’lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta’lim pedagoglariga qo‘yiladigan talablarning qayta ko‘rib chiqilishi tom ma’noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Finlyandiya maktabgacha ta’lim tizimi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini xorij tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, Finlyandiya dunyoda eng samarali ta’lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan. Maktabgacha ta’lim 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Bu tizimning asosiy maqsadi – bolani maktab hayotiga tayyorlash emas, balki uning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlashdir. Finlyandiya dasturida bolalar tabiiy muhitda o‘ynash, erkin fikrlash, o‘z qiziqishlarini namoyon etish orqali o‘rganadilar. Dasturda baholash tizimi yo‘q, o‘qituvchi har bir bolaning rivojlanish yo‘lini kuzatadi va individual yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, oilaviy ishtirokga katta e’tibor qaratiladi.

Rossiya Federatsiyasida maktabgacha ta’lim tizimi. Rossiyada maktabgacha ta’lim davlat tomonidan qat’iy normativ-huquqiy hujjatlar asosida boshqariladi. “Federal davlat ta’lim standarti” (ФГОС ДО) asosida barcha bog‘chalar faoliyat yuritadi. Rossiya maktabgacha ta’limining asosiy yo‘nalishlari – bolalarda nutq, tafakkur, ijtimoiy va hissiy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishdir. O‘qitish jarayonida ko‘p hollarda an’anaviy

metodlar (dars, mashg‘ulot) qo‘llaniladi, biroq zamonaviy interfaol usullar ham joriy etilmoqda.

Rossiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlari turli shaklda faoliyat yuritadi:

- Davlat va munitsipal bolalar bog‘chalari (asosiy shakl);
- Xususiy (nodavlat) bog‘chalar**;**
- Kombinatsiyalangan bog‘chalar (nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus guruhlar bilan);
- Oilaviy ta’lim markazlari (uy sharoitida tashkil etiladigan muqobil shakl);
- Bolalar rivojlantirish markazlari (rivojlantiruvchi, qisqa muddatli dasturlar asosida).

Muhokama. Pedagogik faoliyatda o‘yin asosiy o‘qitish vositasi sifatida qaraladi. Mashg‘ulotlar odatda 15–25 daqiqa davom etadi va ular o‘yin, suhbat, musiqiy faoliyat, rasm chizish, jismoniy harakatlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Rossiya maktabgacha ta’limida formal baholash tizimi yo‘q. Ya’ni bolalarga “baho qo‘yilmaydi”. Baholash kuzatuv asosida amalga oshiriladi: pedagog bolaning faoliyatini, nutqini, muloqotini, ijodkorligini qayd etadi va rivojlanish dinamikasini tahlil qiladi.

Rossiya maktabgacha ta’lim tizimi o‘zining davlat standartlari, tizimlilik va barqarorlik tamoyillari bilan ajralib turadi. Ushbu tizimda bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga katta e’tibor beriladi, ammo ko‘p jihatdan u an’anaviy modelga tayanadi. So‘nggi yillardagi yangilanishlar esa Rossiyani zamonaviy, innovatsion va inkluziv maktabgacha ta’lim tizimi sari olib bormoqda.

Quyidagi jadvalda uch davlatning maktabgacha ta’lim tizimlari asosiy jihatlari bo‘yicha taqqoslangan:

Mezoni	**O‘zbekiston**	**Finlyandiya**	**Rossiya**
Asosiy dastur	“Ilk qadam”	National Core Curriculum for Early Childhood Education	ФГОС ДО
Yondashuv	Milliy qadriyatlar asosida integrativ	Bola markazli, tabiiy rivojlanish	Davlat standarti asosida tizimli
Ta’lim shakli	O‘yin faoliyati asosida	Erkin o‘yin, tajriba, ijodkorlik	Mashg‘ulotlar, o‘yin elementlari
Baholash	Kuzatuv va muloqot orqali	Formal baholash yo‘q	Kuzatuv va pedagogik tahlil
Maqsad	Maktabga tayyorlash va har tomonlama rivojlanish	Shaxsiy rivojlanish, baxtli bolalik	Maktabga tayyorlov va ijtimoiy moslashuv

Xulosa. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Finlyandiya tizimi bola shaxsiga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi, Rossiyada esa ta’lim tizimliligi va normativ asos kuchli. O‘zbekiston esa ushbu ikki modelning o‘rtasida bo‘lib, milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvni uyg‘unlashtirmoqda.

Kelajakda O‘zbekiston ta’lim tizimida Finlyandiya tajribasidagi erkinlik, ijodkorlik va oila bilan hamkorlikka asoslangan yondashuvni yanada keng joriy etish foydali bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasini tahlil qilishimiz natijasida MTMlarni rivojlantirish bosqichini ikki guruhga bo‘lishimizni taqozo etmoqda. Birinchi guruhga MTMlarni moddiy texnik bazasini shakllantirish, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, modernizatsiya qilish, imtiyozli kreditlar berish, shuningdek, davlat tamonidan huquqiy bazasini takomillashtirish jarayonlarini o‘z ichiga olsa, ikkinchi guruhga ta’lim-tarbiya berish, kadrlar malakasini oshirish, ta’lim-tarbiya berishni milliy modeleni ishlab chiqish va bolalarni vatanparvar qilib tarbiyalash kabi vazifalardan iborat bo‘lmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni berdik:

Birinchidan, mamlakatimizda mavjud MTMlarni davlat tassarufidan bosqichmabosqich chiqarish. Bunda xususiylashtirilgan MTMlarni oilaviy, kichik, o‘rta va katta shakldagi MTMlarga aylantirish hamda aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash maqsadida ushbu sohaga DXSh dasturlarini keng jalb qilish. Bunda kam ta’minlangan, temir daftarda turuvchi hamda daromadi kam aholi farzandlariga DXSh doirasida tashkil etilgan MTMlar xizmatlarini taklif etish va tashkillashtirish;

Ikkinchidan, rivojlangan xorij mamlakatlar maktabgacha ta’lim xizmatlaridan xulosa qilgan holda MTMlarni moddiy texnik bazasini yangilash, zamonaviy ta’lim-tarbiya usullarida ta’lim berish jarayonlarini tashkil etish, MTMlarda ikki yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilar uchun maxsus tarbiya berish kurslarini shakllantirish hamda tarbiya oluvchilarga

ularning qiziqish doirasidan kelib chiqib komil inson sifatida shakklanishida ta’lim-tarbiya berishni joriy etish;

Uchunchidan, maktabgacha ta’lim xizmatlarini samarali shakllantirishda xorij tajribasiga tayangan holda ta’lim-tarbiya berishning “O‘zbekona” modelini ishlab chiqish. Bunda modelning ishlash maqsadi tarbiyalanuvchilarga badantarbiya, adabiyotshunoslik, matematika fanlariga ixtisoslashgan shaklda ta’lim-tarbiya berishni olib borish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, diniy qarashlarimiz, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish hislatlarini barpo etish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslangan vazifalarni qamrab olishi darkor;

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari sohasi faoliyati, ta’lim-tarbiya jarayoni, sohani qo‘llab-quvvatlashning qonunchilik bazani takomillashtirish;

Beshinchidan, qishloq, mahalla, pasyolka, kichik shaharlar hamda katta shaharlarda yashash hududlarida raqamli “kraudfanding” raqamli platformasi orqali hayriya mablag‘lari asosida yangi turdagi MTMlarni qurish, mavjud MTMlarni modernizatsiya qilish hamda faoliyat ko‘rsatayotgan MTMlarni o‘quv qurollari, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash

Ushbu taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy yetilishi orqali mamlakatimiz rivojlanishi uchun xizmat qiladigan vatanparvar insonlarni yetishib chiqishida, yangi ish o‘rinlarini yaratishda hamda bobolarimizdek buyuk insonlarni shakllanishida muhim hissa qo‘shgan bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2707-sonli Qarori. 2016-yil 29-dekabr. https://lex.uz/ru/docs/-3090103

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5071-son Qarori. https://lex.uz/docs/-5367000

3. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” -T.: O‘zbekiston, 2021. 23- bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori. Toshkent sh., 2019-yil 8-may. https://lex.uz/en/docs/-4327235

5. В. Стивен Барнеттнинг “Компенсацион эрта болалик таълимининг афзалликлари”. https://www.Jstor.org/стабилный/145736

6. Q.Ж.Мирзаев, M.Q.Пардаев, O.M.Пардаев “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма. “IQTISOD-MOLIYA”, 2014 йил. 384-б.

7. Н.Р.Шаропова “Мактабгача таълим хизматлари бозорида маркетинг тадқиқотларини такомиллаштириш” номли Автореферати. Тошкент. 2021 й

8. M.Q.Aytbaevaning “Maktabgacha ta’lim tas’hkilotlarini jihozlash: muammo va yechim” Applied Sciences and Yeducation Hosted from Berlin, Germany. https://conferencea.org August 30th 2022

9. M.X.Qilichova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari” Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: